



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-YIL YANVAR-IYUL



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023-yilning 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

75754
ming birlik



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

79,2 %



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

99,1 %




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

2023-yilning 1-avgust holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **94906** ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **75754** ming birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **79,2 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,1 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.


Toshkent shahar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyul oylarida) ¹⁾



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-iyul oylarida** bozor xizmatlari hajmi **101 010,3** mlrd.so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-iyul oylariga (117,7 %)** nisbatan o'sish sur'ati **117,7 %** ni tashkil etgan.


¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar -iyul oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	101 010,3	100,0	117,7
Uchtepa	5 613,5	5,6	111,5
Bektemir	3 510,4	3,5	114,1
Yunusobod	16 153,9	16,0	123,0
Mirzo Ulug'bek	10 141,4	10,0	123,2
Mirobod	10 901,4	10,8	111,0
Shayxontohur	11 239,7	11,1	120,3
Olmazor	8 207,1	8,1	114,4
Sergeli	5 223,0	5,2	123,4
Yakkasaroy	8 746,7	8,7	114,8
Yashnobod	8 777,3	8,7	118,4
Yangihayot	1 606,6	1,6	118,3
Chilonzor	10 889,3	10,8	116,2

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (iyul oyida)



2023-yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **33918,9** ming so'mga yetdi. **2022-yil yanvar- iyul oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **114,1 %** ni tashkil etgan.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati, % da


Tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar- iyul oylarida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	33 918,9	114,1
Uchtepa	19 022,4	108,8
Bektemir	61 586,2	105,3
Yunusobod	43 730,0	120,2
Mirzo Ulug'bek	31 194,8	119,9
Mirobod	72 578,9	108,5
Shayxontohur	31 066,2	118,3
Olmazor	20 646,8	111,6
Sergeli	31 925,5	113,3
Yakkasaroy	67 698,7	110,8
Yashnobod	30 049,0	113,9
Yangiheyot	9 790,7	110,8
Chilonzor	39 902,2	114,1

2023-yilning yanvar- iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **32,5 %** ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari **9,6 %**, savdo xizmatlari **21,9 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **10,8 %**, ta'lim xizmatlari **4,7 %** darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **2,2 %** darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar- iyul oylarida, % da)




Taqqoslash uchun: 2023-yilning yanvar- iyul oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **32,5 %** ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **2,2 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul oylarri)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	101 010,3	100,0	117,7
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	10 868,2	10,8	123,5
Moliyaviy xizmatlar	32 827,1	32,5	126,2
Transport xizmatlari	9 667,7	9,6	117,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	4 802,2	4,8	110,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 714,1	4,7	110,7
Savdo xizmatlari	22 085,9	21,9	112,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 314,3	3,3	115,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4 764,4	4,7	118,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 098,3	2,1	104,6
Ijara xizmatlari	1 329,6	1,3	109,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	439,1	0,4	104,8
Shaxsiy xizmatlar	1 052,1	1,0	104,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 176,4	2,2	89,6
Boshqa xizmatlar	5 673,1	5,6	113,7

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-iyul oylarida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi **8 984,1** mlrd. so'mga oshib, **32 827,1** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **32,5 %** ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **126,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-iyuloylarida)

2023-yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **85,2 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **323** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **4,0** % ini tashkil etdi. Ulardan **3881** birlik (**4,1** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.


2023-yil yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **9 667,7** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yil yanvar-iyun oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **117,0** % ni tashkil etdi.



Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 802,2** mlrd. soʻmga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-iyul oylarda)



2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **1,1** %ga oshganligi qayd etildi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,8** %ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yoʻlovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **61,3** %.

Taqqoslash uchun: **2022-yil yanvar-iyul oylarida** ushbu koʻrsatkich **61,3** % ni tashkil etgan.


Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqning umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**47,9 %** yoki **3031** ming birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **40,1 %** ini (**30340** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi **6 057,2** mlrd. so'mga oshib, **22085,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **6,0 %** ga oshganligi qayd etildi.

Savdo xizmatlari (iyul oyida)



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

 Hajmi, trln. so'mda  O'sish sur'ati, % da


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **22,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-avgust holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **7,2** ming birlikka yetdi, shundan **45,5** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **10 868,2** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022-yilning yanvar-iyuliga** nisbatan o'sish sur'ati **123,5** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-iyul oylarida)




“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul oylarida)




2023- yil yanvar-iyul oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 4 764,4 mlrd. so’mga yetdi. 2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o’sish sur’ati 118,8 % ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-avgust holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2028** birlikni tashkil etdi, shundan **1734** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar *(yanvar-iyul oylarida)*



2023- yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **2 098,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1** % ini tashkil etdi.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyul oylarida, mlrd. so'mda)

Toshkent shahar.	2 098,3	Sergeli	143,8
Uchtepa	149,9	Yakkasaroy	213,0
Bektemir	99,7	Yashnobod	152,3
Yunusobod	220,2	Yangihayot	29,6
Mirzo Ulug'bek	250,2	Chilonzor	225,4
Mirobod	117,5		
Shayxontohur	209,0		
Olmazor	287,5		


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


2023- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **5262** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **5199** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar *(yanvar-iyul oylarida)*

2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **1,2** mlrd. so'mga oshib, **4 714,1** mlrd. so'm-ni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyul oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar *(yanvar-iyul oylarida)*



2023-yilning yanvar-iyul oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **3 314,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **3,3 %** ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,0 %** ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


(2023-yil yanvar-iyul oylarida, mlrd.so'mda)

Toshkent shahar.	3 314,3	Sergeli	172,3
Uchtepa	274,9	Yakkasaroy	268,2
Bektemir	77,9	Yashnobod	189,4
Yunusobod	395,7	Yangihayot	82,3
Mirzo Ulug'bek	379,5	Chilonzor	625,6
Mirobod	236,1		
Shayxontohur	209,0		
Olmazor	335,6		

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari (yanvar-iyul oylarida)



2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan ijara xizmatlari hajmi **250,9** mlrd. so'mga oshib, **2023- yil yanvar-iyul oylarida 1 329,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,3** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-iyul oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **57,4** % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-203-88-15 (25)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.